

Yuzlarida nur bor edi

Vodil — anhorlaridan Shohimardon soyning zilol suvlari oqib o'tadigan, tog'lar orasida joylashgan so'lim go'sha — Zulfiyaxonimning yaxshi ko'rgan joylaridan biri edi. Shoiraning bolalarga atalgan "Bir bola bor oti Alisher" kabi bir necha she'ri Vodilda, vodillik Alisher ismli bola bilan tanishib, suhbatlashgandan keyin yozilgan. Alisherning onasi — qishloq kutubxonasi mudiri Saodatxon aya o'zi ham ko'p kitoblar o'qigan, farzandlarini ham shunga o'rgatgan ziyoli ayol edi. Bu xonadonning Zulfiya opa oilasi bilan qadrdonliklari hamon davom etmoqda. Zamiraxon opa Yunusova bilan suhbatimiz ularning shoira bilan ilk uchrashuvlari to'g'risidagi xotiralaridan boshlanadi:

— 1965-yilning oktabr oyi edi. Mahallamizda "Shoira Zulfiya opa Vodilda emish", degan gap tarqaldi. Biz onamning ta'sirlarida ko'p kitob o'qirdik. Bu xabarni eshitishlari bilan "Ertaga Zulfiya opaning oldilariga boramiz", — dedilar onam.

Men eng chiroyli ko'ylaklarimni kiyib borishni rejalashtirib, kechasi bilan uxlo olmay hayajonlanib chiqdim. "Shunday taniqli shoira bizni qabul qilarmikinlar?" — deb o'ylardim. Ertalab onam, qaynsinglim va men yo'lga chiqdik. Zulfiya opaning oldilariga kirib borishimiz bilan o'zimiz tamoman kutmagan olamga kirib qolgandek bo'ldik. U kishi bizni xuddi azaliy qadrdonlardek iliq kutib oldilar.

Ayajondagi odamiyat, samimiyat, mehribonlik bizni o'ziga jalb qilib oldi. Birma-bir ko'rishib kelarkan, menga navbat yetganda onamga qarab: "Saodatxon, bu qizingiz xuddi Mirzakalon Ismoilning "Farg'ona tong otguncha" romanidagi Hayotxonning o'zi-ku!" — dedilar. O'sha paytlar men bu romanni o'qigan edim, quvonchim ichimga sig'may ketdi. Keyin ayajon: "Endi seni Hayotxon deyman", dedilar.

Zulfiya opaning oldilariga asosan ayollar, qizlar borishardi. Kim she'riyatga ixlosi tufayli, kim o'zi yozgan she'rini ko'rsatgani, kim muammosi-savoli bilan... Bir kuni onam: "Zulfiya opa, mening Alisher degan o'g'lim bor, o'zi u-bu narsalar yozadi, maqolalari bolalar gazeta va jurnallarida bosiladi. Yana rasm chizadi, rubob chaladi, uni yoningizga yuborsam, maylimi?" deb so'rabdilar. O'shanda ukam o'n besh yoshlardagi o'smir edi, rubobini ko'tarib Zulfiya opaning oldiga borib keldi-yu, keyin tez-tez qatnaydigan bo'ldi. "Bir bola bor oti Alisher" turkumidagi she'rlarining yozilishiga shu voqealar sabab bo'lgan.

O'sha uchrashuvlardan boshlab mening hayotimda juda katta o'zgarish bo'lgandek, boshqa odamga aylanib qolgandek edim. Keyin bilsam, Zulfiya opa bilan hatto tug'ilgan kunimiz ham bir kunda, ya'ni 1 martda ekan, quvonchimga quvonch qo'shildi.

1970-yilda Toshkentning Labzak mahallasidagi Kompozitorlar ko'chasida joylashgan hovlilariga singlim Manzuraxon bilan birga bordik. Ikkalamizning qo'limizda ham yarim yoshli qizaloqlarimiz bor. Qarang, yosh bolaning yig'i-sig'isi, inijliklari shunday katta shoira, davlat arbobiga yoqadimi-yo'qmi, deb o'ylamabmiz ham. Xonadon egalari bizni samimiyat, quvonch bilan kutib olishdi.

Tong saharda turib, hovlilarni supurib, rayhon ko'chatlarini ekdim. Ayajon dam olayotgan

bo'lsalar kerak, deb o'yladim. Lekin bir payt ichkaridan asta chiqib kelib: "Hayotxon, nega dam olmayapsan?" dedilar. "O'zingiz-chi?" deb so'radim. Ma'lum bo'ldiki, subhidamda turib she'r yozar ekanlar. "Ilhom parisini nima qilding?" deb hazillashdilar. Men hovlidagi o'rik daraxtiga qarab: "Ayajon, Hamid Olimjonga ilhom bergan o'rik daraxti mana shumi?" deb so'radim. "Ha, — dedilar va o'yga cho'mib. — O'rikni ekkan odam yo'q hozir... " deb qo'shib qo'ydilar.

Ayamni ko'rgim, bolalarni qanday tarbiya qilish to'g'risida maslahatlarini olgim kelaverardi. Ukam Alisher o'rta maktabni bitirib, Toshkentga o'qishga kirdi, Zulfiya ayajonning xonadonlari ham xuddi o'z uyidek qadrdon bo'lib qoldi, oiladagilar unga o'z o'g'illari kabi g'amxo'rlik qilishardi. Men ukamni ko'rish bahonasida tez-tez Toshkentga boradigan bo'ldim. Ayam bilan suhbatlashib, rohatlanib qaytardim.

Qancha yurtlarni ko'rgan, katta davralarda yurgan inson men kabi bir chekka qishloqdan borgan ayolga qilgan muomalalaridan hayron qolardim. Yuzlarida nur bor edi. O'zim bilan ishlaydigan ayollar, mahalladoshlarim shunday shoira bilan uchrashib, gaplashishim mumkinligini tasavvurlariga sig'dirolmasdilar.

— Sizlar u ayolni ko'rmagansizlar, bilmaysizlar, — deb taassurotlarimni aytib berardim.

Bir gal Hamid Olimjon haqida gapirib berishlarini so'ragandim:

— Senga endi nimani gapirib beraman?... Yozib qo'yibman-ku, u odam doim men bilan, doim xayolimda. Judayam yaxshi ko'rardilar meni. Juda tinch-totuv hayot kechirganmiz, — dedilar.

Ayajon xuddi o'z o'g'illari kabi, Hulkar opa bilan Omon aka o'z ukalariday mehribonlik qilganliklari, har jihatdan qo'llab-quvvatlab, g'amxo'rlik ko'rsatganliklari uchun ukam Alisher Yunusov iqtisod fanlari nomzodi darajasiga yetdi, bir nechta tillarni mukammal o'rgandi. Hozir u Farg'ona davlat universitetining dotsenti, oliy ta'lim sohasiga Yevropa tajribalarini tadbiq qilish maqsadida ishlab chiqilgan Tempus loyihasi bo'yicha ishlar olib bormoqda.

Ayamning vafosini ko'rib, o'zim ham "Hayotda bitta inson muhabbati bilan o'tish kerak ekan", degan xulosaga keldim, umrimning eng qiyin damlarida u kishining taqdiridan ibrat olib yashab kelyapman. Irodalariga qoyil qolardim, hech qachon hech narsadan shikoyat qilmasdilar. "Hayot shunaqada, hayotni o'rganish kerak odam. Qiyinchiliklarni yengib o'tish kerak", — derdilar. Garchi ayam ko'rinishidan hech kimga ichki tuyg'ularini bildirmagan bo'lsalarda, ko'ngillaridan nimalar o'tganini o'zlari va Alloh biladi.

Farzandlaridayam Zulfiya opaning fazilatleri bor.

Prezidentimiz Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini tashkil qilish haqida Farmon chiqarganlarida, bilasizmi, shu qadar suyundimki! Yurtboshimiz Zulfiyaxonimni tushungaliklari, qadrlaganliklari, haqiqatan ham barcha ayollarga ibratga arziydigan ekanliklarini tasdiqlab qo'yg'anliklari uchun suyundim.

Hurmat-e'zozga munosib insonlar nomini ardoqlab olib yurish ham katta gap. Yurtboshimizdan Zulfiyaxonimdek ajoyib inson nomini abadiylashtirganliklari uchun behad

minnatdorman. Mukofot olgan qizlarga doim shunday degim keladi: "Siz Zulfiya nomiga yarashqli, munosib ishlar qiling. El-yurtga manfaatingiz tegsin, o'zbek xalqi nomini ulug'lab yashang". Nabiralarim ichidan shu mukofotga sazovor bo'ladiganlari yetishib chiqishini orzu qilaman.

“Gulhan” jurnalidan olindi